BINOSOZ F3

## Qurilish xo’jjatlarini yasash uchun dasturiy ta’minot

# Foydalanuvchi uchun qo’llanma

**Simcod MCHJ | www.binosoz.uz**

# Mundarija:


1. **Kirish**

2. **Foydalanishga tayyorgarlik**
   - 2.1. Tizim talablari
   - 2.2. Dasturni faollashtirish
   - 2.3. Foydalanuvchini avtorizatsiyalash

3. **Jarayonlar tavsifi**
   - 3.1. Dastlabki ma'lumotlarni kiritish
   - 3.2. Shakl 3.3 xo'jjatini tanlash va yuklash
   - 3.3. Xo'jjat sanasini o'chirish yoki o'zgartirish
   - 3.4. Xo'jjat yasash
   - 3.5. Natijalar indikatorlari
   - 3.6. Xo'jjatni **.xlsx** shaklida alohida saqlab olish
   - 3.7. Barcha xo'jjatlarni o'chirish

4. **Ko'p so'raladigan savollar**

# 1. Kirish

Binosoz-F3 – hisob-faktura ma’lumotlarini (Shakl 3) tez yasash uchun qulay dasturiy ta’minot. Har bir qurilish ob’ekti uchun alohida **.f3** shaklidagi fayl yaratiladi va dastur yordamida qo’yidagi xo’jjatlarni yasash va alohida **.xlsx** faylga saqlab olish mumkin:

- ✓ Bajarilgan ishlar hisob-faktura ma’lumotnomasi (uylar kesimida)
- ✓ Bajarilgan ishlar hisob-faktura ma’lumotnomasi (ishlar kesimida)
- ✓ Bajarilgan ishlar hisob-faktura ma’lumotnomasi (to'liq shakl)
- ✓ Hisobotlar to'grisida to'liq ma'lumot
- ✓ Qurilish ishlarini bajarish oylik jadvali

# 2. Foydalanishga tayyorgarlik

## 2.1. Tizim talablari

Binosoz-F3 dasturini urnatish talab etilmaydi va uni boshqa kompyuterlarga ko’chirish, USB diskda saqlash va internet orqali uzatish mumkin.

Dasturiy ta’minot 32 va 64 bit versiyali Windows operatsion tizimiga ega kompyuterlarda ishlaydi.

Binosoz-Pro ishlashi uchun kompyuterda Microsoft Excel 2010 yoki undan yuqori ilovasi va internet aloqasi mavjud bo’lishi lozim.

## 2.2. Dasturni faollashtirish

Dastur to’liq ishlashi uchun dasturni faollashtirish talab etiladi.
Buning uchun dasturiy ta’minot yetkazib beruvchidan (www.binosoz.uz) faollashtirish kaliti olinib **СТАРТ** panelida mahsus katakka kiritiladi.

Faollashtirish kaliti – bu foydalanuvchining shaxsiy hisob raqami bo’lib, pulli xizmatlar uchun to’lovlar yechib boriladi. To’lov faqat yangi xo’jjat yasash uchun va faqat foydalanuvchining tasdi’g’idan keyin yechib olinadi. Qoldiq **СТАРТ** panelida ko’rinadi. Mavjud qoldiqni ko’rish uchun **АКТИВИРОВАТЬ** tugmasini bosing.

### 2.3. Foydalanuvchini avtorizatsiyalash

Dastur faollashtirilgandan keyin, avtorizatsiya qilish uchun parol kiritishingiz kerak. Fayl har ochilganda avtorizatsiya qilish talab etiladi. Parolni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz avtorizatsiya holatida yangi parol kiritishingiz mumkin.

Faollashtirish kalitini va parolni boshqa shaxslarga bermang, aks holda boshqa shaxslar tomonidan hisobingizdaqi mablag' ishlatilishi mumkin.

# 3. Jarayonlar tavsifi

## 3.1. Dastlabki ma'lumotlarni kiritish

**ДОКУМЕНТ** panelini oching va u yerda ob'ekt nomi, tomonlar rekvizitlari, ob'ekt turi (ko'p qavatli / yakka tartibdagi), uylar raqamlari va boshqa ob'ekt qiymatini shakllantirish va xo'jjatni rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni kiriting. **OK** tugmasi yordamida kiritilgan ma'lumotlarni saqlashingiz mumkin.



**СМЕТА** nomli varaqda Lokal resurs ma'lumotnomasidan kerakli ma'lumotlar kiritiladi. Ushbu varaq ish nomlarini kiritish uchun 55 qatordan va 30ta ob'ekt uchun ish nomlarining hajmlari va qiymatlarini kiritish uchun ustunlardan iborat.

Ma'lumotlarni boshqa fayldan ko'chirishda, sichqonchaning o'ng tugma menusida joylashgan **Вставить** yordamida amalga oshirishingiz mumkin. Agar Ctrl+V tugmalari yordamida, boshqa fayldan ma'lumotlarni ko'chirsangiz, jadval shakli o'zgarishi mumkin. Jadval shakli o'zgarsa, jadvalning o'ng tomon tepa qismida joylashgan siyohrang tugma yordamida jadval shaklini sozlashingiz mumkin.




Ish turlari qiymatlarini QQSsiz kiriting. Agar ish turlarini bo'limlarga ajratmoqchi bo'lsangiz, **Сумма** grafasida **1** raqamini kiriting. Agar shartnoma QQS bilan bo'lsa, ob'ektning umumiy qiymati QQS bilan ko'rsatiladi.

*Jadval shakli* *Umumiy qiymati QQS bilan* *1 raqami bilan bo'limlarga ajrating*

| Ф | ВИДЫ РАБОТ \|?\| | ЕД.ИЗМ. | КОЛ-ВО | СУММА | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 4 117 389 984,55 | ВСЕГО | № 1-1 | 3 580 339 117,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 1 | ПОДЗЕМНАЯ ЧАСТЬ | | | 1,00 | | | | |
| 2 | ЗЕМЛЯНЫЕ РАБОТЫ | М3 | 13 176,00 | 30 119 040,54 | | | | |
| 3 | ФУНДАМЕНТЫ | М3 | 268,00 | 209 832 450,44 | | | | |
| 4 | ПОДЗЕМНЫЕ КАНАЛЫ | М | 1,60 | 6 965 365,58 | | | | |
| 5 | ОТМОСТКА | М3 | 38,94 | 5 803 213,41 | | | | |
| 6 | НАДЗЕМНАЯ ЧАСТЬ | | | 1,00 | | | | |
| 7 | СТЕНЫ | М3 | 647,40 | 661 656 282,98 | | | | |
| 8 | ПЛИТЫ ПЕРЕКРЫТИЯ | ШТ | 237,00 | 472 994 994,14 | | | | |
| 9 | КРОВЛЯ | М2 | 528,00 | 171 315 028,21 | | | | |
| 10 | ОКОННЫЕ БЛОКИ | М2 | 512,10 | 147 814 067,47 | | | | |
| 11 | ДВЕРИ | М2 | 294,58 | 190 486 677,62 | | | | |
| 12 | ПЕРЕГОРОДКИ | М3 | 4,72 | 93 057 394,62 | | | | |
| 13 | ПОЛЫ | М2 | 1 440,00 | 218 681 760,31 | | | | |
| 14 | ВНУТРЕННАЯ ОТДЕЛКА | М2 | 11 070,00 | 192 338 778,28 | | | | |
| 15 | НАРУЖНАЯ ОТДЕЛКА | М2 | 3 844,00 | 306 692 256,39 | | | | |
| 16 | ЛЕСТНИЦА | М2 | 18,00 | 76 173 971,82 | | | | |
| 17 | КОЗЫРЕК | М2 | 48,00 | 8 423 675,45 | | | | |
| 18 | ВЕНТШАХТЫ | ПМ | 24,00 | 27 520 247,68 | | | | |
| 19 | ИНЖЕНЕРНАЯ ЧАСТЬ | | | 1,00 | | | | |
| 20 | ВЕНТИЛЯЦИЯ | ШТ | 25,00 | 13 806 752,72 | | | | |
| 21 | ОТОПЛЕНИЕ | КВТ | 157,00 | 195 431 597,30 | | | | |
| 22 | ХОЗПИТЬЕВОЙ ВОДОПРОВОД | М | 683,00 | 38 562 682,94 | | | | |
| 23 | ГОРЯЧИЙ ВОДОПРОВОД Т3 | М | 546,00 | 17 176 390,66 | | | | |
| 24 | КАНАЛИЗАЦИЯ К1 | М | 413,00 | 56 493 902,39 | | | | |
| 25 | ГАЗОСНАБЖЕНИЕ | М | 629,70 | 88 501 801,52 | | | | |
| 26 | ЭЛЕКТРОМОНТАЖНЫЕ РАБОТ | М | 6 114,00 | 179 680 689,06 | | | | |
| 27 | ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБОРУДС | КОМП | 24,00 | 135 918 110,59 | | | | |
| 28 | ПРИСТРОЙКИ | | | 1,00 | | | | |
| 29 | МАФЫ | ОБЪЕКТ | 1,00 | 17 812 110,21 | | | | |

## 3.2. Shakl 3.3 xo’jjatini tanlash va yuklash

**ДОКУМЕНТ** panelidagi **ВЫБРАТЬ** tugmasi yordamida Hisob-faktura (Shakl 3) xo’jjatini tanlash va yuklab olish mumkin. Faqat Binosoz-F3 yordamida yasalgan va saqlab olingan Shakl 3.3 (Форма 3.3**)** xo’jjatga ega faylni yuklash mumkin. **ДОКУМЕНТ** panelida **№** katagida xo’jjatning raqamini kiritishingiz mumkin.

## 3.3. Xo’jjat sanasini o’chirish yoki o’zgartirish

Xo’jjat sanasini tanlab, so’ng **УДАЛИТЬ** tugmasi yordamida xo’jjatni o’chirish mumkin. Shuningdek, oxirgi yasalgan xo’jjatning sanasini o’zgartirish mumkin. Buning uchun, oxirgi xo’jjatdan oldingi xo’jjatning sanasidan oldin bo’lmagan sanani ko’rsatgan holda **ИЗМЕНИТЬ** tugmasini bosing. Eski xo’jjatlar sanalarini o’zgartirish mumkin emas.




## 3.4. Xo’jjat yasash

Xo’jjat sanasini **ДОКУМЕНТ** panelida kiriting va **OK** tugmasini bosing. **ОБНОВИТЬ** tugmasi yordamida tanlangan sana kuniga foizlar va boshqa ma’lumotlar holatini ko’rsating.

Bajarilgan ishlarni foizda ko’rsatish uchun 100 sonigacha kiritishingiz mumkin. Agar kiritilgan son 100dan yuqori bo’lsa, bajarilgan ishning qiymati deb hisoblanadi va ko’k rangda belgilanadi.




Bajarilgan ishlar foizlari/qiymatlari ko’rsatilgandan keyin, xo’jjatni xotiraga saqlash uchun **ЗАПИСАТЬ** tugmasini bosing.

Oxirgi xo'jjatga o'zgartirish kiritib qaytadan **ЗАПИСАТЬ** yordamida saqlashingiz mumkin. Oxirgi xo'jjatdan oldingi xo'jjatlarni o'zgartirish mumkin emas.

## 3.5. Natijalar indikatorlari

Indikatorlar ob'ektlar, bo'limlar, materiallar qiymatlarini, hamda balarilgan ishlar foizlarini ko'rsatadi. Sichqonchaning ko'rsatkich o'qini indikator ustiga olib borib, indikator qaysi ma'lumotni ko'rsatishini bilishingiz mumkin.











### 3.6. Xo'jjatni .xlsx shaklida alohida faylga saqlab olish

**СОХРАНИТЬ** tugmasi yordamida tanlangan xo'jjat alohida faylga **.xlsx** shaklida saqlab olinadi.

### 3.7. Barcha xo'jjatlarni o'chirish

Sichqonchaning o'ng tugma menusida joylashgan **ОЧИСТИТЬ** yordamida barcha xo'jjatlarni o'chirishingiz mumkin.




# 4. Ko'p so'raladigan savollar

### 4.1. Saqlangan .f3 faylni to'g'ridan to'g'ri ochsa bo'ladimi?

Saqlangan **.f3** fayli ustida sichqonchaning o'ng tugmasini bosing, ochilgan menuda **"Открыть с помощью->Выбрать программу…"** orqali Binosoz-F3 dasturini tanlang va **"Использовать выбранную программу для всех файлов такого типа"**ni belgilab **OK** tugmasini bosing. Endi **.f3** fayllarni to'gridan to'g'ri Binosoz-F3 yordamisiz ochishingiz mumkin.

### 4.2. Agar .f3 faylni faollashtirilgan holatdan chiqarmasdan boshqa shaxslarga bergan bo'lsam nima bo'ladi?

Boshqa shaxslar avtorizatsiya bo'lmasdan faylni ishlata olishmaydi. Agar o'zingiz boshqalarga parolingizni ma'lum qilgan bo'lsangiz, siz avtorizatsiya holatida parolingizni o'zgartirib quyishingiz mumkin. Agar parolingizni unutgan bo'lsangiz, parolni tiklash uchun dastur yetkazib beruvchisi bilan bog'lanishingiz mumkin.

**Agar sizda savollar, yoki Binosoz-F3 bo'yicha takliflar bo'lsa, ularni qabul qilishdan xursand bo'lamiz.**